


HO 25677  
ASOM ZIYOMAT

# SONG QO'rnida



25677

10 0

2000A-2419

ZIYOMAT, A

2000A-2419

ad'ynida!

Va

# ASOM ZIYOMAT

СО  
60-5

OVLONIM GULLARI

## *Tong qo‘ynida*

Hujumaliga sochilgan

B (She’rlar va ertak)

Quidan gulga qo‘n nisbar

G‘unchalarning bolini

Rohat qilib so‘rishar

Ona yurtga bo‘idi zeb

Ovlonim gullari

Hovilimizga dan bordi

Ovlonim qo‘nlar

**Контрольный экземпляр**

“Cho‘pon” nashriyoti  
Toshkent

O'z2  
Z-63

TAMOYIS MOZA

25677

10 0

O'zb. Res. DK  
A | 2419

### Ziyomat, Asom.

Tong qo'ynida: (she'rlar va ertak).—T.: “Cho'lpon”,  
1999.—32 b.

Ushbu to'plamda ona Vatan, uning go'zal tabiatini, qishloq bolarining qiziqarli hayoti, orzu-intilishlari mavzusidagi she'rlar o'rinni olsin.

“Sehrli buloq” ertagida Sarvar otaning baxt uchun kurashi aks etgan.

O'z2

Z 4803620202 - 27  
360 /04/-99 Qo' sh. 99

© “Cho'lpon” nashriyoti,  
1999 y.

ISBN 5-8250-0636-2

## **OYIJONIM GULLARI**

Hovlimizda gullarning  
Hamma turi ochilgan.  
Muattar gul hidlari  
Har tarafga sochilgan.  
Bolarilar vizillab,  
Guldan gulga qo'nishar,  
G'unchalarning bolini  
Rohat qilib so'rishar.  
Ona yurtga bo'ldi zeb  
Oyijonim gullari.  
Hovlimizga nur berdi,  
Oyijonim qo'llari.

## **QUYOSHIM**

Uzumlarga rang berib,  
Asal etgan o'zingsan.  
Mevalarga ta'm berib,  
Shakar etgan o'zingsan,  
Mehri daryo quyoshim.  
Chehrangda doim kulgi,  
Olam ko'z-qarog'ingda.  
Tabiat go'zalligi  
Har lahza ardog'ingda,  
Mehri daryo quyoshim.

## **ASALARI QQ'SHIG'I**

Eh, g'unchajon,  
G'unchajon,  
Sendan orom  
Olar jon.

Ajoyib  
Jamoling bor.  
Kosa to'la  
Boling bor.

Erkalanib  
Yayrayman,  
Kosangdan  
Bol yalayman.

Yig'ib-yig'ib  
Xonamga,  
Ulashaman  
Odamga.

## **RAHMDIL**

Aka,eshik orasidan  
Sovuq kiar g'izillab,  
Barmoqlarim muzlatdi,  
Ingrar behol izillab.

Eshikni ocha qolay,  
Olsin biroz isinib.  
Eshigimiz orasida  
Yurmasin-da qisilib.

## **CHIN DO‘ST**

— Ko‘zing to‘la  
Jiqqa yosh.  
Seni urdi  
Qay bebosh?!

— Do‘stim Zafar  
Qoqilib,  
Tushdi yerga  
Yiqilib.

Joni og‘rib  
Yig‘ladi.  
Behol bo‘lib  
Ingradi.  
Rahmim kelib  
Do‘stimga,  
Yosh keldi-da  
Ko‘zimga.

## **MAQTANCHOQ CHIVIN**

O‘zin ko‘rib ko‘zguda  
Chivin: “Akang zo‘r”, — dedi,  
Uyoq-buyoqqa yurib:  
“Salobatim ko‘r”, — dedi.  
Hatto katta xona ham  
Kelib qolgan kabi tor,  
G‘urur bilan murtini  
Qimirlatdi necha bor.  
So‘ng hovlida o‘ziga  
Orolandi berib zeb.  
“Ha, chindan zo‘r ekansan”, —  
Dedi Chumchuq tutib yeb.

## GULBAHOR

Tomchi tomar  
Tarnovlardan:  
— Tiq, tiq, tiq,  
Kun ilidi,  
Sojida qiz,  
Chiq, chiq, chiq...  
Shamol kelib  
Eshik qoqar:  
— Taq, taq, taq,  
Bahor keldi,  
Sojida qiz,  
Boq, boq, boq...

## ONAJONIM

Har tomonga zor-zor boqib,  
Meni izlar onajonim:  
— Bir lahzada qayga ketdi  
Qo'zichog'im, bolajonim?

Bir burchakka olib o'zim,  
Oyimdadir ikki ko'zim.  
Hech indamay turar edim  
Dilga tugib aytar so'zim:

“Eh, qanchalar mehribonsiz,  
Mening aziz onajonim.  
Chin onalik mehringizdan  
Yuragimda hayajonim”.

## **TONG**

Atrof jimjit. Tiniq rang  
 Toza havo — eh, maza —  
 A’lochi qiz Soraday  
 Yuzin yuvgan top-toza.

## **“DONO” UKAM**

Quyosh chiqqach, shudringdan  
 Ho’llanibdi yer;  
 Ukam: “Hovli issiqdan  
 Terlabdi-ku”, — der.

## **QO‘SHIQ**

Chotqol tog‘dan oqqan suvlar  
 Qishlog‘imdan o’tadi.  
 Sukunatning bag‘rin yorib,  
 Uzoqlarga ketadi.

So‘qmoqlardan dadil o‘tib,  
 Shoshib-shoshib oqadi.  
 Mavjlarining shildirashi  
 Ko‘ngillarga yoqadi.

Undan olib cheksiz ilhom  
 Men ham qo‘shiq bitaman.  
 Zavq olsin deb, qo‘shig‘imni  
 Tashna dilga tutaman.

## **SOYAKI**

Yeganlar bersin baho,  
Asli o'zim bebah.  
Soyaki derlar otim,  
Sharbat misoldir totim.  
Qor-yomg'irga qoldirmay,  
Tanannga suv tomdirmay,  
Osib olsa uyiga,  
Zarur bo'lgum to'yiga...

## **MEN OYIMGA YORDAMCHI**

O'tin yorib taqillatib,  
Suv qaynatib shaqillatib,  
Sovun surtib,  
Ko'pik bo'rtib,  
Kir yuvaman,  
Gard quvaman,  
Men oyimga yordamchi!  
Oq choyshabni tekis yoyib,  
Yordam berar ukam Soyib.  
Izillatib,  
Jizillatib  
Dazmollayman,  
Pardozlayman,  
Men oyimga yordamchi.  
Har bir ishda chaqqon, bardam,  
Ish qidirar ko'zim har dam.  
Oyim meni  
Olqishlaydi.  
Bor mehrini  
Bag'ishlaydi,  
Men oyimga yordamchi.

## YOZ SHAMOLI

Shivir-shivir  
Yoz shamoli  
Esar asta —  
Tun navoli.

Bog‘ oralab  
Guv-guv yelar  
Behi hidin  
Olib kelar.

## BAHOR SOZI

Jilg‘alarda  
Sho‘x sozlar —  
Hayajonli  
Ovozlar.

Sho‘x toychoqday  
Chopar u,  
Shundan orom  
Topar u.

Chuldiraydi  
Tinmasdan,  
Charchash nima  
Bilmasdan.

Bahor sozi  
Xilma-xil.  
Tinglab orom  
Olar dil.

## TOYCHOQ

Biyamiz qulunladi,  
Yunglari biram mayin.  
Dikir-dikir chopqillab  
O'sayapti kun sayin.  
Onasiga talpinsa,  
Rahmim kelar toyimga,  
— Biyani kamroq sog'ing,—  
Yolvoraman oyimga.

## OLTIN KUZIM

Mevalarni  
Shakar etding.  
Yaproqlarni  
Sim-zar etding,  
Oltin kuzim,  
To'ymas ko'zim.  
To'kin-sochin  
Dalayu bog',  
Dehqonlarning  
Dimog'i chog'.  
Ko'rdim o'zim,  
Saxiy kuzim.  
Paxtazorlar  
To'la yulduz,  
Terayapmiz  
Kecha-kunduz.  
Yorug' yuzim,  
Yasha, kuzim!

## **KEKSALAR**

So'rida otaxonlar  
Suhbat qurar kulishib.  
Bosib o'tgan yo'llarin  
Eslab, zavqqa to'lishib.

To'rt bobo — to'rtta kitob,  
To'la ertak-hikmatga.  
Ona diyor qo'ynida  
Loyiq izzat-hurmatga.

## **PAXTA**

Chanoqlarda  
Oppoq paxta  
Kulib turar,  
Qanday baxt-a!

Erkalanib  
Tebranadi.  
Yal-yal yonib  
Tovlanadi:

— Rahmat senga,  
Aziz dehqon.  
Uyding bizdan  
Ulkan xirmon.  
Mehnatingdan  
Oltin bo'ldik,  
Chanoqlarga  
Lim-lim to'ldik.

## NOSHUKUR

Salim, Sodiq, Sadoqat:  
“Ne qilsak?”, — deb o‘yladik.  
Kelishib bir ovozdan  
Mehmon-mehmon o‘ynadik.

Hurmat qilib Sodiqni  
Yuqoriga o‘tqazdik.  
— Bir yosh bizdan katta, — deb,  
Qarang, qancha yutqazdik.

Dasturxonda borini  
Sodiq paqqos tushirdi.  
— Topganlaring shumi? — deb,  
Yana lunjin shishirdi.

## MENING CHOPQIR TOYCHOG‘IM

Mening jiyrон toychog‘im,  
Dikir-dikir o‘ynaysan.  
Erkalanib onangga,  
Sho‘xligingni qo‘ymaysan.  
Naq quyunday uchasan,  
Bo‘lsang ham-ki bir oylik.  
Quloqlaring chimirib,  
Chopishlaring chiroylik.  
Sero‘t, sutli, qaymoqli,  
Yashil qirlar makoning.  
Tez ulg‘ayib o‘sishga  
Bor, toychog‘im, imkoning.  
Sen hozircha qulunsan,  
Ulg‘ayasan ot bo‘lib,

Poygada kelsang oldin,  
Zavqlanaman shod bo'lib.

### TONG QO'YNIDA

Tongda zavqli sayrashar  
Shoxchalarda qushchalar.  
Qushlar tilida doston  
Tongning ko'rki shunchalar.

Ko'kat, maysa silkinib  
Shamolga bo'lar hamdam.  
— Yuvingin, — deb qo'limga  
Maysalar tutar shabnam.

### YALPIZ TERAR GULNOZA

Ariq bo'yida maysa,  
Suvlarda sho'x andoza.  
Chimchib-chimchib, donalab,  
Yalpiz terar Gulnoza.

To'lqin-to'lqin irmoqlar,  
Kuy chalar, qanday soz-a,  
Savatchasi yonida,  
Yalpiz terar Gulnoza.

Borliq chinni kosaday,  
Yuvilgan — biram toza.  
Sochida tol bargagi,  
Yalpiz terar Gulnoza.

## **QIR BAG'RIDA**

Qirlar bag'ri  
Qanday soz-a,  
Havosi ham  
Sof va toza.

Chuchmomalar  
Ko'zin ochgan.  
Qir bag'rige  
Mehrin sochgan.

Gul-lolalar  
Alvon-alvon,  
Shodliklarim  
Jahon-jahon.

Ol ufqlar  
Aqlim oldi.  
Go'zal qirda  
Mehrim qoldi.

## **BUNI QARANG**

— Kechga qolding  
Darsdan nega? —  
Deb so'rasam,  
Javrар Egam:  
— Soatimiz  
Charchab-tolib,  
Uyg'otmabdi  
Uxlab qolib.

## BU KIM BO'LDI?

Erinchoq bo'lib  
Qolibman, qarang.  
Tug'ishgan akam  
Tanimay garang.

— Bu xabash bola  
Keldi qayerdan?  
Ko'kdan tushdimi,  
Chiqdimi yerdan?!

Yuzin yalasa  
Agarda shu choq,  
Bo'kib o'lardi,  
So'zsiz, to'rt buzoq.

Uyalib ketdim.  
O'zimdan o'zim.  
Yuzim lovullar,  
Yer chizar ko'zim.

Darrov yuvindim,  
Akam suv quydi.  
Sal xafa bo'lib  
Qovog'in uydi.

Toza artinib,  
Oynaga boqdim,  
O'zimga-o'zim  
Judayam yoqdim.

## TOG'DAGI SIRK

(Ergash ota xotirasiga)

Nasim esar mayingina  
Silab yuzu ko'zlarni.  
Ergash bobo "qani, chu", deb  
Eshagini tezlardi.  
Dala zavqi otaxonga  
Tinchlik bermas erta-kech,  
Har bahorda tog' bag'rini  
Kanda qilmas shundan hech.  
Katta dovon bag'rida bir  
Mo'jaz chayla ko'rindi.  
Ko'rib tanish otaxonni  
Bolajonlar suyundi.  
Keksa-kampir, yoshu qari  
Yig'ildilar bir onda —  
Axir ota san'atini  
Ko'rmaganlar armonda.  
Keng sayhonga joy qilinib  
Qo'r olishdi hammasi.  
Otaxonning san'atidan  
Lol qolishdi hammasi.  
Eshagini yetaklab u  
Olib chiqdi o'rtaga,  
Shal pangquloq boshin chayqab  
Oyoq tirar jo'rttaga.  
— Xo'p de, eshak, behudaga  
Isrof qilma kuchingni.  
Egasining gaplariga  
Eshak darrov tushundi.

Boshin egib qulqlarini  
Chimirib salom qildi.

Qiyqirig'u olqishlar  
Uzoq vaqt davom qildi.

— Maktabiga bormay har kun  
Ko'cha kezar bolani  
Yurishini bir ko'rsat-chi,  
Lol qoldirib hammani.

Qulog'ini shalpaytirib,  
Ko'zin yumib tek turdi.

Ko'rsatishsa kitob-daftar,  
Boshini chetga burdi.

— Qani uyg'a erinmasdan  
Yaxshilab bir yozgin xat.

“Mehmonda zo'r ekan, — degin,—  
Joyida hurmat-izzat!”

Qalamni tishlab jonvor  
Yerga chizdi bir chiziq.

Tarixda kam uchraydi  
Bunday tomosha-qiziq.  
Olqishli shovqin-suron,  
Tinmas qarsak sadosi.

Qirlarga singib ketar  
Zavqu-shavqning navosi.  
Bolalar qo'l silkishar:

— Kelib turing, bobojon.

Bu zavqli tomoshani  
Unutmaymiz hech qachon!

Ergash ota o'zidan  
Zo'r xotira qoldirdi.

Ko'rganlarning dilida  
Zavq-shavq o'tin yondirdi.

## KIM DANGASA

Muallimni aytganini,  
“Yaxshi bo‘ling” deganini  
Bajarmasa,  
“Xo‘p” demasa,  
Shu o‘quvchi — dangasa.  
Kitob-daftar uyda qolsa,  
Behuda u chopib tolsa,  
O‘qimasa  
Va yozmasa,  
Shu o‘quvchi — dangasa.  
Do‘stlar bilan bo‘lmay ahil,  
Yursa mudom bo‘lib baxil,  
O‘rganmasa,  
O‘rgatmasa,  
Shu o‘quvchi — dangasa.  
O‘zin ishga chog‘lamasa,  
Do‘sqlik i pin bog‘lamasa,  
Ishi chakki,  
Yeyar dakki,  
Shu o‘quvchi — dangasa.

## CHAQIMCHI

Rasulning bir odati —  
Do‘stlarga xiyonati.  
Chaqimchilikdir ishi,  
Boshqa yo‘qdir yumushi.  
Yolg‘on so‘zni rostdek aytib,  
O‘z so‘zidan ortga qaytib,  
Chin do‘stlarni mushtlashtirar,  
Yolg‘on-rostni juftlashtirar.  
U “chaqimchi” nomin oldi,  
Tezda yolg‘iz bo‘lib qoldi.

## **AYOZ BOBO**

Derlar meni  
Ayoz bobo.  
Bilsang, dardga  
O'zim davo.  
Mikroblarni  
Tez qiraman.  
Ko'cha bo'ylab  
Yuguraman.  
Sirpanmachoq  
Gar o'ynasang,  
Xandon otib  
Sho'x-shod kulsang,  
Xursand bo'lib,  
Izillayman.  
Har tomonga  
G'izillayman.

## **ERTAK SEHRI**

— Jonvorlarga joy berdik  
Uyimizning to'ridan.  
Bir keling qo'rmasangiz  
Arslon, Ayiq, Bo'ridan.  
So'rар, cholning gapidan  
Hayron bo'lган do'stlari:  
— Ular bilan yashashga  
Qo'rqlaydimi "o'zlari"!  
— Nega endi qo'rqayin, —  
Kular bobom yonimda, —  
Sarguzashtli ertaklar  
Axir dili-jonimda.

Bobom ertak aytganda,  
Yo‘lbars bo‘lib o‘kirar.  
Xo‘roz bo‘lib qichqirib,  
Arslondayin bo‘kirar.  
Ovozini o‘xshatar  
Goh qutirgan sirtlonga.  
Shunda mo‘jaz uyimiz  
To‘lar har xil hayvonga...

## NAVRO‘Z BOBOM KELDILAR

— Assalom, — deb qishlog‘imga  
Navro‘z bobom keldilar.  
Shamol kabi o‘ynoqlab  
Nafis hidlar yeldilar.

Navro‘z bobom — yoshi ulug‘ —  
Minglab yillar oshgaysiz.  
Tabiatga jon bergani  
Doim shunday shoshgaysiz.

Qomatingiz xo‘p xushbichim,  
Soqolingiz — oqi yo‘q.  
Hech kimda yo‘q unday chiroy,  
Kiyimingiz yashil to‘q.

Bunday chog‘lar o‘zida yo‘q  
Yashnab ketar dalajon.  
Tengsiz go‘zal yurtimizga  
Xush kelibsiz, bobojon!

## SEHRLI BULOQ

(*Ertak*)

Elbrus — tog‘larning shohi.  
Bag‘rida yashar ohu.  
Yashil ko‘rkam o‘tlog‘i.  
Biram tiniq bulog‘i.  
Bahorga chin sozanda —  
G‘unchalar ochar xanda.  
O‘ttiz yildan ortiqroq  
Balki, undan sal ko‘proq,  
Yashar qoya bag‘rida  
Bir orzuning ahdida,  
Zolim shohning dastidan  
Nolib taqdir — baxtidan,  
Tashlab ona qishlog‘in,  
Hatto urug‘-aymog‘in,  
Besh oltita xonadon  
Tug‘ishgandek qadrdon.  
Sarvar bobo yoshligi —  
Chaqindek beboshligi,  
Shu yerda o‘ynab o‘tgan.  
Tabiat ilhom tutgan.  
Lekin, dilida armon,  
Afsuslanar u hamon.  
Orzu gulin termadi —  
Taqdir farzand bermadi.  
Bobo quyosh botguncha,  
Uchar qushlar yotguncha,

Qo‘ylarin boqar edi,  
So‘ng uya qaytar edi.  
Har kuni kechki oqshom  
Kampiri chiqib mudom,  
Kutar edi intizor,  
— Hormang, — derdi beozor.  
Qarshi olib cholini  
Haydab kirar molini.  
Shunday o‘tar har kuni —  
Besanoq zulmat tuni.  
Kunlar o‘tar besamar,  
Keldi yoz taqib kamar.  
Saraton. Kun isidi,  
Chol chanqaganin sezdi.  
Yon tomonda bor chashmá,  
Zilollik unga oshna.  
Chuldirab oqar edi,  
Ko‘rganga yoqar edi.  
Shuncha yil kezib qirni,  
Ko‘rmagandi bu sirni.  
Tiniqligi — ko‘k shisha,  
Qaynab toshar hamisha.  
Chol shu suvdan simirdi,  
Chanqog‘ini qondirdi.  
Mazasidan jon oldi,  
Bir ajib hisga toldi.  
Biroz fursat o‘tmasdan,  
O‘yplashga ulgurmasdan,  
Vujudida o‘zgarish:  
Silkinishmi, qo‘zg‘alish,  
O‘ttiz yoshli yigitdek,  
Shijoatli burgutdek,  
Yosh yigitga aylandi,

Kiyimi zar to'ndandi.  
Oqshom kular tabriklab,  
Tarovatin ko'z-ko'zlab.  
Sarvar ko'rар shu onda:  
Buloqning qirg'og'ida  
Bir qiz, o'xshab malakka,  
Hadik solib yurakka,  
Shivirlar sekingina:  
— Men bir o'lmas malika,  
Yashayman o'zim yakka.  
Har faslga maftunman.  
Men qarimas zaytunman.  
Uzoq yillar kuzatdim.  
Kimliging yaxshi bildim.  
Yaxshilarga hamdamman,  
Zolimlarga yomonman.  
167 Suvimdan ichsa zolim,  
Bezovta bo'lar holim.  
Jismi uchar shaklidan  
Asar qolmas aslidan,  
Senga tanish bu tog'lar.  
Mevasiz ko'm-ko'k bog'lar.  
Nay chalding, qo'shiq aytding,  
Ba'zan uygа kech qaytding.  
Hamma siring bilaman,  
Ko'p kuzatib yuraman.  
Sarvar xo'p rahmat aytdi,  
Sekin uyiga qaytdi.  
Qo'y haydagan — begona,  
Kampir bo'lib giryona,  
Yuziga turdi boqib.  
So'ng so'z qotdi, tutoqib:  
— Ko'rking shohga o'xshaydi.

Gapingdan dil qaqshaydi.  
Cholim sezsa gapingni,  
O'yib olar ko'zingni.  
Uchramagin qahriga,  
Chidolmaysan zahriga.  
Tezroq yo'qol bu yerdan,  
Joy toparsan har yerdan.  
Sarvar so'zlar birma-bir  
Kechirmishin — ajib sir.  
Kampirin ishontirdi,  
Shod etib quvontirdi.  
Xayol otin minishdi,  
Najot istab yurishdi.  
Kampir ko'rib buloqni,  
His qildi sal to'lg'oqni.  
Hovuch-hovuch simirar,  
Shukur, deb qosh chimirar.  
Cholda ro'y bergan holat  
Kampirga berdi madat,  
Aylandi u malakka,  
Yetdi orzu-tilakka.  
G'uncha yozdi muhabbat,  
Ortda qoldi musibat.  
Shamol bo'lib el aro,  
Targaldi yangi sado.  
Eshitganlar lol, hayron,  
So'zlashar biyron-biyron.  
Yoqa ushlar ba'zilar,  
Lol bo'lishdi qozilar.  
Shoh eshitib shu zamon,  
Yoqa ushlar begumon.  
Xabarchisin chaqirdi,  
Unga rosa uqtirdi:

— Topib kel o'shal zotni,  
Qashshoq, so'qir bezotni.  
Munkillagan, imonsiz,  
Murda rangli, vox, jonsiz!  
Keltiring huzurimga!  
Hayron sirdan odamlar:  
Torgina kichik hovli,  
Ikkisi Majnun, Layli,  
Hovliga hech yarashmas,  
Do'stlarga mag'rur boqmas.  
Ikkisin olqishlashar,  
Dil so'zin bag'ishlashar.  
Xabarchilar ham hayron:  
Shovqin-suron, g'alayon.  
Otin niqtar xabarchi,  
Ildam yuradi jarchi,  
Shoh xabarin yetkazdi,  
Xo'p, ishini bitkazdi.  
Sarvar esa tutoqib,  
O'z qalbiga o't yoqib.  
Xabarchiga do'q urdi,  
Joyidan jilmay turdi.  
Jarchi g'azabga to'lib,  
Sarvar yoqasin bo'g'ib,  
Yelkasiga bir urib,  
Olib ketmoqchi bo'ldi.  
Odamlar, qahri oshib,  
Nafrati suvdek toshib,  
Elchiga tosh otishdi,  
G'azabdan xo'p yonishdi.  
Cho'chib xalqning qahridan,  
O'tib ahdning bahridan,  
Jarchi qochishga shoshdi,

Jon saqlashga tog' oshdi.  
Xabarni eshitib shoh  
G'azabidan urdi oh!  
Farmon berdi o'sha dam,  
Bo'linglar deya bardam.  
— Qaytinglar o'sha yurtga,  
Ularni o'lim kutgay.  
Yaxshilikcha kelishsin,  
Farmonimga ko'nishsin.  
Ziyrak xalq sezib shu on,  
Ko'tardilar g'alayon.  
Askar xalqqa tashlandi,  
Ko'pni ko'zi yoshlandi,  
Dod-faryodlar avj oldi,  
Ko'plarga qayg'u soldi.  
Sarvarni band etdilar,  
Tezda shohga eltdilar.  
Ko'rib malak ikkisin,  
Shilmoq bo'ldi terisin,  
Shoh jallodni chaqirdi,  
Alam bilan baqirdi:  
— Oling tandan boshini,  
Qoldirmang yo'ldoshini.  
Vazir-chi, shu zamonda  
Engashib shoh tomonga  
Bir so'zni shivirladi,  
Shoh esa ma'qulladi.  
— So'zla, ko'rgan siringni,  
O'sha ko'rgan yeringni.  
Siringni maxfiy tutma!  
Kimligingni unutma!  
Sarvar boshlar so'zini,  
Tetik tutib o'zini.

Chinga yolg‘on qo‘shmadi,  
Haddidan hech oshmadi.  
Barcha sir bo‘ldi oshkor,  
Boshqa bo‘lmas hech takror.  
Xona ichi jim qoldi,  
Hamma xayolga toldi.  
Kimdir sirga ishonmas,  
Kimdir bu so‘zdan qonmas,  
Hamma shohga tikildi,  
Qomatlari egildi.  
Shoh hukmini kutishdi,  
Bir zum nafas yutishdi.  
So‘ng, manzilga jo‘nashdi,  
Yetib kelib qarashdi:  
Oddiygina bir buloq,  
Sehri sezilmas mutloq.  
Biqir-biqir toshardi,  
Daryo sari shoshardi.  
Ammo bugun... loysimon,  
Sarvar ko‘nglida gumon —  
Ichganda tiniq edi,  
Bunday rangi yo‘q edi.  
Shoh ham tushdi gumonga,  
Dili to‘ldi armonga,  
Otboqarga tikildi,  
Oly farmon aytildi:  
— Shu suvdan ichib ko‘r-chi,  
Ta’mida ne bor, bil-chi.  
Otboqar hayron qoldi,  
Buloq tomon yo‘l oldi.  
Tip-tiniq buloq rangi,  
Ko‘rinmas loyqa zangi.  
Hovuch-hovuch simirdi,

Lazzatlanib kekirdi.  
Qadam tashladi asta —  
Yigit bo'lib barvasta.  
Shoh ko'ziga ishonmas,  
Yolg'on desa yolg'onmas.  
Otboqarga go'zallar  
Zimdan ko'zin suzarlar,  
Havasga loyiq qomat —  
Bir zumda kuldi omad.  
Shoh bilan malika ham —  
Dilida orzu alam —  
Bir hid urdi dimoqqa.  
Suv ichishdi simirib,  
Bir-biriga termulib.  
Olov rangli, o'tsimon,  
Tumanga o'xhash to'zon  
Shohni o'radi shu on.  
To'da bo'lib chirmashdi,  
Ko'kka qarab tirmashdi.  
Turganlar hayron bo'ldi,  
Dillari vayron bo'ldi.  
Malika ham shu holda,  
Talvasa qilar yonda.  
Afsonada aytilgan,  
Dostonlarda bitilgan,  
Jodugarga o'xshadi,  
Dod solib zor qaqshadi.  
Bu yangilik — uchar ot,  
Bir zumda yozib qanot,  
Tezda elga tarqaldi,  
"Mo'jiza" deb ataldi.  
Har kim o'ziga folbin,  
So'zlarida ming taxmin.

Nafrat ortib tilida,  
G'azab qaynab dilida,  
Shohga la'nat o'qishdi,  
Ko'plar nolib so'kishdi.  
Sarvarning shijoati —  
Bu elning saodati...  
Sarvar elning ko'zida—  
Ikki qo'li ko'ksida.  
Karnay-surnay navolar,  
Jo'shqin sado havolar.  
Dehqonlar bel bog'lashib,  
O'zin ishga chog'lashib,  
Hamma ishga kirishdi,  
Maqsad sari yurishdi.  
O'tgan umrin ziynati,  
Yuragida himmati,  
Kulbasiga yo'l oldi,  
Bir ajib hisga toldi.  
Baland-past tik qoyalar —  
Jon oromi soyalar.  
Pastlikda soyning sozi,  
Tebranar shoxlar nozik.  
Sarvarga jon bag'ishlab,  
Qushlar uni olqishlar:  
— Egallagin taxtingni,  
Ato etdik baxtingni,  
Elbrus hamon mag'rur,  
Atrofiga ko'z solur:  
Har bir umr — bu ertak,  
Oqadi misli soydak.

## MUNDARIJA

Oyijonim gullari .....	3
Quyoshim .....	3
Asalari qo'shig'i .....	4
Rahmdil .....	4
Chin do'st .....	5
Maqtanchoq chivin .....	5
Gulbahor .....	6
Onajonim .....	6
Tong .....	7
"Dono" ukam .....	7
Qo'shiq .....	7
Soyaki .....	8
Men oyimga yordamchi .....	8
Yoz shamoli .....	9
Bahor sozi .....	9
Toychoq .....	10
Oltin kuzim .....	10
Keksalar .....	11
Paxta .....	11
Noshukur .....	12
Mening chopqir toychog'im .....	12
Tong qo'ynida .....	13
Yalpiz terar Gulnoza .....	13
Qir bag'rida .....	14
Buni qarang .....	14
Bu kim bo'ldi? .....	15
Tog'dagi sirk .....	16
Kim dangasa .....	18

Chaqimchi .....	18
Ayoz bobo .....	19
Ertak sehri .....	19
Navro'z bobom keldilar .....	20
<b>Ertak</b>	
Sehrli buloq .....	21

Жылдын сабактарынын түркмөн таралышы

## ТАМОУЛЫК МОРА АДЫГЫ ОО'КИЙЛӨР

Сабактардын түркмөн таралышынын  
жылдын сабактарынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын  
түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын

### САБАКТАР

Сабактардын түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
жылдын сабактарынын түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын

адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын

адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын  
адыгы оо'кийлөр түркмөн таралышынын түркмөн таралышынын

81	Chardiyeli
81	Azax popo
81	Bunqishchiy
85	Narox's popo's kobilish
85	Karal
15	Sohim pulud
	SYNDARIL
Dijonim guflari	3
Quyoshim	3
Asafat qo'shi	4
Rahmati	4
Chin do'sti	4
Maqtanchiq chay	5
Gulbaker	6
Onajonim	6
Teng	7
"Dona" ekani	7
Qo'shiq	7
Soyaki	8
Men eyingiz	8
Yoz shamoli	9
Baher sozi	9
Toyoda	10
Glis	10
Kelbi	11
Paxt	11
Nasab	12
Mekan	12
Teng	13
Yulpo	13
Qir	14
Bun	15
Bu	15
Tos	16
Kim	16
	Asom ZIYOMAT
	TONG QO'YNIDA
	<i>Adabiy-badiiy nashr</i>
	<i>She'rlar va ertak</i>
	<i>Muharrir R. Azimova</i>
	<i>Rassom R. Xolmuxamedov</i>
	<i>Rasmlar muharriri R. Zufarov</i>
	<i>Texnik muharrir YE. Tolochko</i>
	<i>Musahhiha G. Azizova</i>
	IB № 0762
10.11.99. da bosmaxonaga berildi. Bosishga 29.12.99 ruxsat etildi. Bichimi 70x901/32. Adabiy garniturası. Yuqori bosma. Shartli bosma toboq 1,17. Nashr tabog'i 1,15. Buyurtma № 341. Shartnomा № 27—99 Nusxasi 2000 dona. Bahosi kelishilgan narxda.	
"Cho'Ipón" nashriyoti. 700129 Toshkent, Navo- iy ko'chasi, 30 uy.	
O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi- ning Toshkent kitob-jurnal fabrikasida chop etildi. Toshkent — 195, Yunusobod dahasi, Murodov ko'- chasi, 1-uy.	



100

